

**XALQARO NORDIK UNIVERSITETI**

**«O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASINI  
AMALGA OSHIRISH YO‘NALISHLARI VA  
ISTIQBOLLARI YOSHLAR NIGOHIDA»  
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-  
AMALIY KONFERENSIYA**

**Toshkent – 2024**



<b>Dilshodova D.D.</b> O'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish va bilimlarni o'zlashtirishda interfaol o'qitish usullarning o'rni .....	96
<b>Rustamov Sh.Sh.</b> Talabalar innovatsion kompetenligini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik asoslari.....	100
<b>Sherqo'ziyeva D.A., Umarova Z.A.</b> Logopedik mashg'ulotlar uchun foydali onlayn platformalar.....	104
<b>Rustamova M.I., Umarova Z.A.</b> Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'limda innovatsion ta'lim texnalogiyalarining o'rni va ahamiyati .....	106
<b>Umarova Z.A.</b> O'zbekiston – 2030 strategiyasini amalga oshirishda talabalar mustaqil tayyorlarligini rivojlantirish masalasi .....	109
<b>Abdugafforova N.F.</b> Exploring the role of motivation in english language learning .....	112
<b>Safarova Z.</b> Case method in teaching pedagogical approach.....	115
<b>Валиева Н.З.</b> Роль женщин в науке как фактор повышения научного потенциала в новом Узбекистане.....	118
<b>Usmonov M.T.</b> Technology using robotrack IDE Software .....	121
<b>Marasulova D. N., Tilonboyeva D.Q.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tillarini o'rgatishning lingvopsixologik xususiyatlari.....	124
<b>Maxmudaliyeva M. M., Shodmonov R.G'.</b> Xalqaro grantlar yutish va ularning ahamiyati .....	128
<b>Rahmatullayeva M., Shodmonov R.G'.</b> BMT tashkiloti va uning dunyo hamjiyatidagi ro'li.....	135
<b>Nasrillayeva M.A., Shodmonov R.G'.</b> Topik haqida tushuncha.....	138
<b>Asqarova F., Shodmonov R.G'.</b> Ko'p tillarni o'rganish haqida.....	141
<b>Iskandarova N.Q., Shodmonov R.G'.</b> Bilingualismning afzalliklari: ikki yoki undan ko'p tillarni bilishning insonning kognitiv va kulturologik ko'nikmalari bo'yicha .....	143
<b>Erkinova R. E., Shodmonov R.G'.</b> Yangi tilni o'rganish metodikasi .....	146
<b>Shukurova M.Z., Shodmonov R.G'.</b> Yunesko:tashkil topishi va istiqboli .....	148
<b>Omondullayeva D., Shodmonov R.G'.</b> Til o'rganish va turizm.....	152
<b>Norimbatov D.Q., Shodmonov R.G'.</b> IELTS and TOEFL: similarities and differences sides.....	155
<b>Xoliqberdiyeva M.A., Shodmonov R.G'.</b> Nega yoshlarimiz ielts va cefr olishga intilmoqdalar? .....	160
<b>G'anijonova D. G', Shodmonov R.G'.</b> Hozirgi vaqtida yoshlar nega sat imtihonini topshirib, xorijda o'qishni xohlayabdi? .....	163

Quyidagilar mustaqil online ta’lim olish imkonini beruvchi eng ommabop bepul platformalardir.

Bundan tashqari Coursera platformasi ham online ta’lim olish uchun foydali platforma. U 36 mln dan ziyod foydalanuvchiga ega, 3000 dan ziyod kurslarni jamlaydi. Unda gumanitar, aniq va tabiiy fanlar bo'yicha bilimlarni kompleks tarzda olish mumkin. Har bir mavzu 15 daqiqalik video ma'ruza, o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun test va topshiriqlardan tarkib topgan. Yana qo'shimcha tarzda har bir kurs yakunida imtihon bor, undan muvafaqqiyatli o'tgan foydalanuvchiga elektron shaklda sertifikat ham taqdim etiladi. Bu platformani afzalligi shundaki, video ma'ruzalarini o'zingizga kerakli tildagi subtitr bilan tanlash mumkin. Bu fanni o'rganish bilan bir qatorda, kerakli til bo'yicha ko'nikmalarni mustahkamlash imkonini beradi. Shuningdek zamonaviy texnologiyalar va online til kurslaridan foydalangan holda yangi tilni o'rganish, o'rganayotgan kishini zeriktirib qo'ymaydi. Yangi tilni o'rganish bizga ko'p imkoniyat eshiklarini ochadi. Misol tariqasida agar biz IELTS yoki CEFR chet tili sertifikatlarini qo'lga kirlitsak, chet elning nufuzli universitetlarida o'qish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Bundan tashqari yurtimizda ham chet tili sertifikatiga ega yoshlarga ko'p imtiyozlar mavjud. Bakalavriyat ta'lim bosqichiga xujjat topshirayotgan abiturentning chet tili sertifikati B2 darajasi bo'lsa unga chet tili yunalishidan eng yuqori ball beriladi. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, yangi tilni o'rganish natijasida muloqot imkoniyatlari oshishi, filmlarni va kitoblarni o'z tilida ko'rish va o'qish mumkinligi va akademik unvonlarga erishish imkoniyati bor.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. J.Jalolov "Chet til o'qitish metodikasi", Toshkent 2012
2. t. mehiddenshell.ru "Nega chet tillarini o'rganish kerak. Chet tili va sizning imkoniyatlariningiz."
3. t.megoabroad.com "Why is it importan to learn a foreign language?"

## YUNESKO HAQIDA

**Shukurova Munira Zohidjon qizi<sup>1</sup>**

*<sup>1</sup>Xalqaro Nordik universiteti*

*Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi*

*1-kurs 1-XT-23 guruh talabasi*

**Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li<sup>2</sup>**

*<sup>2</sup>Xalqaro Nordik universiteti doktoranti*

*[r.shodmonov@nordicuniversity.org](mailto:r.shodmonov@nordicuniversity.org)*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda YUNESKO tashkiloti haqida ma'lumotlarga va uning kelib chiqish tarixi, vazifalari va hozirgi kunda muhim ahamiyatga ega bo'lgan barcha sohalardagi tashabbuslariga, erishilgan natijalariga, tarkibiy tuzilmalari, maqasidlari, statistik ma'lumotlari to'g'risida to'xtalib o'tamiz.

**Kalit so'zlar:** YUNESKO, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Kotibiyat, Konferentsiya, CAME.

**Kirish:** Bugungi kunda YUNESKO tashkiloti qay darajada muhim, va uning hozirda ta'lif, madaniyat, axborot, va qolgan dolzarb mavzularda amalga oshirayotgan ishlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak UNESCO (inglizcha: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization – Birlashgan Millatlar Ta'lif, Bilim va Madaniyat Tashkiloti).

YUNESKO ning rivojlanishi 1942 yilda ikkinchi jahon urushida bir nechta Yevropa Mamlakatlari hukumatlari Birlashgan Qirollikda Ta'lif bo'yicha ittifoqdosh vazirlar konferensiyasida ushrashgan vaqtidan boshlangan.

Konferentsiya davomida ishtirokchi davlatlar rahbarlari ikkinchi jahon urushidan keyin butun dunyo bo'ylab ta'lifni qayta qurish yo'llarini ishlab chiqishga harakat qilishgan. Natijada 1934 yilning 1-16 noyabr kunlari Londonda ta'lif va madaniyat tashkilotini tashkil etish uchun kelgusidagi konferentsiyani o'tkazishga qaratilgan CAME ning taklifi aniqlandi.

Ushbu konferentsiya 1945 yilda BMT rasmiy ravishda paydo bo'lishidan ko'p o'tmay boshlanganida delegatlar tinchlik madaniyatini rivojlantiradigan, insoniyatning intellektual va manaviy birdamligini mustahkamlaydigan tashkilot tuzishga qaror qilgan, mamlakat boshqa urushlarning oldini olish maqsadida tashkil topgan. Konferentsiya 1945 yil 16 noyabrdan nihoyasiga yetgach, ishtirokchi davlatlardan 37 nafari YUNESKO ning Konstitutsiyasiga asos solgan.

YUNESKO ning Konstitutsiysi ratifikatsiya qilingach, 1946 yil 4 noyabrdan kuchga kirdi. Tashkilotning birinchi rasmiy bosh konferentsiyasi 1946 yil 10 noyabrdan 1946 yil 30 dekabrgacha Parijsda bo'lib o'tdi. Shu kundan boshlab YUNESKO butun dunyo bo'ylab ahamiyatli bo'lib, uning ishtirokchi davlatlar soni 195 taga yetdi. BMT ning 193 a'zosi bor, lekin KUK orollari va FALASTIN ham YUNESKO a'zosi hisoblanadi.

Hozirgi kunda YUNESKO uchta boshqaruvchi, siyosat va ma'muriy sohalarga bo'linadi. Ularning birinchisi Bosh Konferentsiya va Ijroiya Kengashidan iborat Boshqaruv organlari. Bosh konferentsiya Boshqaruv organlarining haqiqiy yig'ilishi bo'lib, u turli a'zo davlatlarining vakillaridan iborat. Bosh konferentsiya har ikki yilda bir martta siyosat o'rnatish, maqsadlarni belgilash va YUNESKO ning ishlarini bayon etish uchun yig'iladi. Yilda ikki martta yig'iladigan Ijroiya Kengashi Bosh konferentsiya tomonidan qabul qilingan qarorlar qabul qilinishini ta'minlash uchun mas'uldir. Bosh direktor YUNESKO ning yana bir filiali bo'lib, tashkilotning ijrochi rahbari hisoblanadi. 1946 yilda YUNESKO ning ta'sis etilganligi sababli, sakkizta Direktor general mavjud. Birinchisi 1946-1948 yillarda xizmat qilgan Buyuk Britaniyalik Julian Xuxli edi. Bosh direktor Yaponiya bosh vaziri Koichiro Matsuura hisoblanadi. U 1999 yildan buyon xizmat qilmoqda, u YUNESKO ning yakuniy bo'limi Kotibiyatidir.


YUNESKO tashkil qilinganidan keyin ta'lif, ijtimoiy adolat va global tinchlik va hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan bo'lган. Shu maqsadlarga erishish uchun YUNESKO beshta mavzu yoki faoliyat sohasiga ega. Ulardan

birinchisi ta'lif va ta'lim uchun turli ustuvor yo'nalishlarni belgilab berdi, jumladan, savodxonlik, OIV/OITS ni oldini olish va Afrikaning quyi qismida o'qituvchilarni tayyorlash, jahon miqyosida sifatli ta'limni targ'ib qilish, shuningdek, o'rta ta'lim, texnologik ta'lim va oliy ma'lumot.

Tabiiy fanlar va Yer resurslarini boshqarish - YUNESKO ning yana bir harakat yo'nalishi.

## Объекты всемирного наследия ЮНЕСКО в мире

Countries with the highest number of UNESCO world heritage sites



As of August 2020

Source: UNESCO

### 1-rasm Yuneskoning jahon merosi obyektlari eng ko'p bo'lgan mamlaktlar 2020-yil avgust oyiga ko'ra<sup>12</sup>

Okanni muhofaza qilishni - rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda barqaror rivojlanishiga erishish, resurslarni boshqarish va tabiiy ofatlarga tayyorgarlik ko'rishga fan va muhandislik texnologiyalarini targ'ib qilishni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy va gumanitar fanlar - yana bir YUNESKO mavzusi bo'lib, asosan inson huquqlarini targ'ib qiladi va kamsitish va irqchilikka qarshi kurash kabi global masalalarga qaratiladi.


Madaniyat – madaniy hillikni saqlashga, shuningdek, madaniy merosni asrashga xizmat qiladigan YUNESKO ning yana bir mavzusi hisoblanadi.

<sup>12</sup> [c428bd32bec13d5f503d0620123057f9.jpeg \(1160×1200\) \(make-up-course.ru\)](https://c428bd32bec13d5f503d0620123057f9.jpeg)

Aloqa va axborot – YUNESKO ning oxirgi mavzusi u butun dunyo bo'y lab umumiy bilimlarni yaratish va turli mavzular bo'yicha bilim va bilimlarga ega bo'lish orqali odamlarning imkoniyatlarini kengaytirish uchun "so'zlar va tasvir bilan erkin oqimlarni "o'z ichiga oladi.

YUNESKO besh mavzudan tashqari, alohida mavzularga yoki turli mavzularga ega, chunki ular turli mavzularga mos kelmaydigan multidisiplinerlik yondashuvini talab qiladi. Ushbu sohalarning ba'zilari iqlim o'zgarishi, gender tengligi, tillar va multilingualizm va barqaror rivojlanish uchun ta'lim.

YUNESKO ning eng taniqli maxsus mavzularidan biri – Butunjahon meros markazidir, bu yerda u madaniy, tabiiy va aralash joylar butun dunyoda muhofaza qilinadigan, madaniy, tarixiy, va yoki tabiiy merosni saqlab qolish uchun boshqa joylarda ko'rishga yordam beradi. Ular orasida Giza Piramidi, Avstraliyaning Buyuk Barrier Reef va Perudagi Machu Picchu bor.



**2-rasm.“UNESCO” tashkiloti 1952- 2003-yillar oralig’ida erishgan natijalari<sup>13</sup>**

Umumjahon mualliflik huquqi konvensiyasi

- Inson va biosfera dasturi
- Jahon merosi konvensiyasi
- Nomoddiy madaniy merosni muhofazalash to'g'risida konvensiya

Bu xalqaro tashkilotga a'zo mamlakatlarning vakillari ikki yilda bir martta o'zlarining bosh konferentsiyalariga to'palanadilar. Bu anjumanda ular YUNESKO ning keyingi ikki yillik faoliyatining dasturini qabul qiladilar. Ushbu dasturni amalga oshirish uchun unga a'zo davlatlar mablag' byudjeti ajratadilar. YUNESKO faoliyati o'ta xilma xil va ko'p qirralidir. Uning ta'lim sohasidagi faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu rivojlanayotgan davlatlarda savodsizlikni tugatish, jahon ta'limi rivojlanishidagi tendensiyalarni tahlil qilish va uni ommalashtirish, u yoki bu

<sup>13</sup> [Ўзбекистон ва UNESCO ҳамкорлиги қандай ривожланмоқда — инфографика \(sputniknews.uz\)](#)

mamlakatda ta'lim bo'yicha olib borilayotgan siyosatni ham moddiy ham ma'naviy rag'batlantirish va h.k.

YUNESKO mazmunli ta'limning hamma uchun birday imkoniyat doirasida bo'lishini ta'minlash, uning uzlucksizligini qaror toptirish, ta'limni va uning shaklini kelajakda rivojlanishi tamoyillaridan kelib chiqadi.

O'qituvchi kadrlar tayyorlash, ularni nazariy-metodik saviyasini muttasil oshirib borish, dunyoning bazi mamlakatlarida muammo bo'lib hisoblangan xotin-qizlarning erkaklar bilan teng bilim olishhuquqlarini ta'minlash, ekologik ta'limni yo'lga qo'yish, darslik va dasturlarni takomillashtirish, mamlakatlar o'rtasida ta'lim bo'yicha hamkorlikni butun imkoniyatlar bilan rivojlantirish va juda ko'p boshqa masalalarni hal etadi.

Men xulosa sifatida YUNESKO tashkilotini Butunjahon hamjamiyati uchun qilgan va shu kungacha amalga oshirib kelayotgan dasturlari, g'oyalari, natijalari ikkinchi jahon urushidan so'ng tubdan o'zgartirishlar kiritgani haqida ma'lumotlarga ega bo'ldim. Bu tashkilot asosan qoloq davlatlar uchun muhim ahamiyatga ega tashkilot odamlarni do'stlikka, hamjihatlikka undaydi deb hisoblayman.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. [Ўзбекистон ва UNESCO ҳамкорлиги қандай ривожланмоқда — инфографика \(sputniknews.uz\)](#)
2. <https://www.unesco.org>
3. <https://www.uis.unesco.org>

## TIL O'RGANISH VA TURIZM

**Omondullayeva Dilafruz<sup>1</sup>**

*<sup>1</sup>Xalqaro Nordik universiteti  
Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi  
1-kurs 1-XT-23 guruhi talabasi*

**Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li<sup>2</sup>**

*<sup>2</sup>Xalqaro Nordik universiteti doktoranti  
[r.shodmonov@nordicuniversity.org](mailto:r.shodmonov@nordicuniversity.org)*

**Annotatsiya:** Turizm - O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning (bundan buyon matnda shaxslar deb yuritiladi) doimiy yashash joyidan tibbiy, dam olish, ta'lim, jismoniy tarbiya, sport, kasbiy, ishbilarmonlik, diniy va boshqa maqsadlarda vaqtincha jo'nab ketishlari (sayohatlari). vaqtincha bo'lgan mamlakat (joy)dagi manbalardan daromad olish bilan bog'liq faoliyat bilan shug'ullanmasdan boshqa maqsadlarda foydalanishi tezisda ifodalangan.

Ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga kirib borgan, ijtimoiy dunyo va landshaftni o'zgartirgan turizm biznesi iqtisodiyotning eng muhim omillaridan biriga, davlatlar va davlatlararo munosabatlarning rivojlanishi uchun kuchli turtki bo'ldi. Turizmni rivojlantirishning yuqori sur'atlari va katta hajmdagi valyuta